

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G'.Numonova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
<b>J.G'.Numonova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 821.112.2.0+82.09

## XX ASR O'ZBEK VA NEMIS DRAMASIDA DAVR VA QAHRAMON TALQINI

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРИОДА И ГЕРОЯ В УЗБЕКСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ ДРАМАТЕ XX ВЕКА

## INTERPRETATION OF PERIOD AND HERO IN UZBEKI AND GERMAN DRAMA OF THE 20TH CENTURY

Dadajonov Oybek Zokirjonovich

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## Annotatsiya

Maqolada XX asr o'zbek va nemis dramasi davr va qahramon talqini haqida so'z yuritilgan. Badiiy tahlillar asosida davr va qahramon xarakterini yorituvchi poetik usullar tadqiq etilgan. XX asr 60-90 yillardagi o'zbek dramaturgiyasi va naturalizm, tanqidiy realizm oqimlari ta'sirida maydonga kelgan XX asr nemis dramaturgiyasida o'ziga hos o'tish davri bo'ldi. Har qanday o'tish davri, inson va uning jamiyatda tutgan o'rni masalalari hal etilishi lozim bo'lgan muhim muommoga aylanadi. Har bir millatni milliy adabiyoti nufuzi jahon adabiyoti xazinasiga qo'shgan hissasi, va adabiyotlar bilan qiyosda namoyon bo'ladi. Xususan, yurtimizda kechgan asosiy diqqat - e'tibori bilan turli xil zamonaviy mavzularni aks ettirishga qaratilgan XX asr 60-90 yillar o'zbek dramaturgiyasi, hamda XX asr boshlaridagi nemis dramaturgiyasi o'rtasida o'xshashlik va o'ziga hos jihatlarni ko'rish mumkin. Mazkur davlatlarda har ikki mintaqada madaniy, siyosiy, ijtimoiy hayotida jiddiy siljishlar, keskin g'oyaviy kurash kechgan edi.

## Аннотация

В статье говорится об интерпретации эпохи и героя в узбекской и немецкой драматургии XX века. На основе художественного анализа исследованы поэтические приемы, проливающие свет на эпоху и характер героя. XX век был особым переходным периодом в немецкой драматургии, находившейся под влиянием узбекской драматургии 60-90-х годов, течений натурализма и критического реализма. Любой переходный период, вопросы человека и его роли в обществе становятся важной проблемой, которую необходимо решить. Влияние национальной литературы каждого народа отражается как в ее вкладе в сокровищницу мировой литературы, так и в сравнении с другими литературами. В частности, можно увидеть сходство и своеобразие между узбекской драматургией 60-90-х годов XX века и немецкой драматургией начала XX века, ориентированной на отражение различных современных тем в нашей стране. Произошли серьезные изменения в культурной, политической и общественной жизни обоих регионов, а также острая идеологическая борьба.

## Abstract

The article talks about the interpretation of the era and the hero in Uzbek and German dramas of the 20th century. Based on artistic analysis, poetic methods that shed light on the era and character of the hero were researched. The 20th century was a special transitional period in the German dramaturgy, which was influenced by the Uzbek dramaturgy of the 60s-90s and the currents of naturalism and critical realism. Any transitional period, issues of man and his role in society become an important problem that needs to be solved. The influence of the national literature of each nation is reflected in its contribution to the treasury of world literature, and in comparison with other literatures. In particular, to see similarities and unique aspects between the Uzbek dramaturgy of the 60s-90s of the 20th century and the German dramaturgy of the beginning of the 20th century, which focused on reflecting various modern themes in our country. possible There were serious changes in the cultural, political, and social life of both regions, as well as a sharp ideological struggle.

**Kalit so'zlar:** davr, qahramon, inson, jamiyat, oila, halollik, adolat, imon, hayot, naturalizm, teatr, tomoshabin.

**Ключевые слова:** период, герой, человек, общество, семья, честность, справедливость, вера, жизнь, натурализм, театр, зритель.

**Key words:** period, hero, person, society, family, honesty, justice, faith, life, naturalism, theater, audience.

## KIRISH

Bu vaqtga kelib o'zbek dramaturglari zamon voqeligini tasvirlashda, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni, to'g'rilik va halollik, adolat va haqiqat, imon va e'tiqod, sevgi-muhabbat mavzularini yoritishda maqsad qilgan bo'lsalar, nemis yozuvchilari xalqlarining ijtimoiy, madaniy turmush tarzi, ayni xududdagi siyosiy o'zgarishlar, falsafiy qarashlar, estetik tafakkur va diniy-e'tiqodiy mavzularga doir asarlarni ommaga taqdim etdilar. Shunday bo'lsa-da nemis

naturalizimida yangi teatrning roli, avlodlar to'qnashuvi nuqtai nazaridan qaraganda, ayollarning oiladagi mavqeini ko'rsata oladigan yangi dramaning ahamiyati asosiy planga chiqdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umuman olganda dramada qahramonning faolligi, kurashchanligi, o'zida davrning yetakchi tendensiyalarini mujassam etgan ijtimoiy-axloqiy qiyofasi uning faol ekanligi orqali yuzaga chiqadi. V.Ahmedova tadqiqotida dramaturgiyada qahramon talqini masalasiga to'xtalib, "dramaturgiyaning taraqqiyot tamoyillari, muallif fikr-o'ylari va ruhiyat-hollarining qahramon tiyatiga singdirilishi insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos xususiyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etishini" [1] ta'kidlab o'tadi. Shuning uchun adabiyotshunoslik fani o'z obyektiga hamisha yangicha nigoh bilan qarash, dramaturgiya poetikasiga daxldor muammolarni teran anglash yo'lidan boradi. Ma'lumki, dramatik asarlarda badiiy-estetik g'oya va maqsadlar, ijodkor mahorati bevosita qahramonlar xatti-harakati, o'zaro munosabati orqali ochib beriladi. Dramatik asarlar mohiyatini teran anglash, ular zamiriga singdirilgan ma'naviy ozuqadan bahramand bo'lish, badiiy-estetik jozibani his qilish kitobxondan alohida e'tiborni talab qiladi. Dramatik asarlarda yozuvchining qahramon tanlovi davr va muhit orqali g'aydalanib, xarakter tasviri va zamon bilan hamnafaslik asosiy maqsad sifatida qaraladi.

XX asrning 60-90-yillarida o'zbek dramaturgiyasi nazariyasi va uning xarakterli jihatlari, xususan, davr va qahramon masalalariga doir qator tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu borada adabiyotshunos olimlardan H.Abdusamatov[2], S.Mamajonov[3], T.Sobirov[4], B.Imomov[5], B.G'ulomov[6], B.Jalilov[7], va boshqa mualliflarning kuzatishlari, fikr-mulohazalari e'tiborlidir.

### NATIJA VA MUHOKAMA

XX asr 60-90 yillarda yaratilgan o'zbek dramalarida davr va qahramon talqini, asar konsepsiyasi nuqtai nazaridan o'rganish, ulardagi ma'no talqinlarini, obrazlar tizimini yoritishda Izzat Sulton dramalari ahamiyatli hisoblanadi. Adibning "Imon" dramasida oddiy o'zbek oilasi misolida davr ziyolilarining ijtimoiy-ma'naviy, moddiy-maishiy hayotidagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Yozuvchi dramadagi oila a'zolarining Vatan oldidagi insoniy va fuqoroviy burchi, o'z xalqi uchun chinakam vijdonan xizmat qilishlik bilan hayot kechirish lozimligi ochib beriladi. Asardagi ushbu xususiyatlar barcha kishilarning zaruriy insoniy burchi bo'lishi bilan bir qatorda insonda mustahkam imon va e'tiqod bo'lishligi alohida ta'kidlab o'tiladi.

Dramaning bosh qahramoni Yo'ldosh Komilov butun umri davomida bor kuch-g'ayrati, aql-zakovatini xalqi va o'z oilasiga xizmat qilishga bag'ishlab, farzandlarining ham o'zi kabi pok vijdonli, to'g'ri so'z, halol va albatta mustahkam imon egasi bo'lishini chin yurakdan istaydi va bu yo'lda tinimsiz mehnat qiladi. Y.Komilov imon haqida so'z yuritib, "Imon va idrok – insonni inson qilgan narsalardir. Biz imonsiz odamlar emasmiz. Bizning yuksak imonimiz bor. Davrimizning eng ilg'or e'tiqodi va axloqi – bizning imonimiz bo'ladi" [8], degan fikrni aytadi. Darhaqiqat adib ushbu gaplari bilan o'zbek xalqining yuksak imon va e'tiqodini barralla ta'kidlaydi. O'sha davr nuqtayi nazardan qaraganda ham imonga boy insonlar juda kerakli edi. Izzat Sulton Y.Komilov timsolida haqiqiy imonli, insofli, adolatparvar insonni tasvirlar ekan, hatto imon oldida o'z jigamandidan vos kechishga ham rozi bo'ladi. Bundan tashqari o'g'li Orifning yengil yo'lni tanlaganiga chiday olmaydi. Yo'ldosh Komilovning mustahkam imoni uning o'g'li Orif va makkor Sanjarovning razilliklariga, tubanliklariga qarshi kurash jarayonida yaqqol ko'rinadi. Komilov Sanjarovga chinakam ziyoli inson xalqi uchun qanday pozitsiyada bo'lishligini ta'kidlab, "Faqat ma'lumot va kasbgina kishiga «ziyoli» degan ulug' nomni ko'tarib yurishga huquq bermaydi. Biz ziyolilar birimiz muallimimiz, birimiz vrach, birimiz – agronom. O'zimiz har xilmiz, kasbimiz har xil. Ammo bizning hammamizning bitta, yagona bosh kasbimiz bor. Bizning bosh kasbimiz – bizni ro'yobga chiqargan xalqqa xizmat. (*G'urur bilan.*) «Ziyoli» degan so'z ziyo egasi, nur egasi, hayotga nur sochuvchi, odamlarning zehninga nur bag'ishlovchi demakdir. (*Nafrat bilan.*) Sendan esa faqat qora sassiq tutun burqsiydi." [9] gaplarni aytib o'tadi.

Davrdan kelib chiqib ziyoli qatlamning tushunchalari, g'oyalari har xil bo'lgani, Ziyolilarni birlashtiruvchi narsa esa yakdil bir maqsadga yo'naltirilgan — g'oya ekanligini aytib o'tish lozim. Biz oliy ma'lumotli odamlarni salohiyatli deyishimiz mumkin, lekin faqat ma'lumotiga qarab ziyoli deb aytolmaymiz. Darhaqiqat Izzat Sulton qahramoni orqali o'sha davrda yashab o'tgan, ilg'or g'oyalarni olg'a surgan, bu yo'lda qo'ldan kelgan xizmatini ayamagan ziyolilar nazarda tutgan

## TILSHUNOSLIK

bo'lsa ajab emas. O'zlarini ijtimoiy ilmlar bilan jamiyatni gullab yashnashiga harakat qilayotgan ziyolilar turli tazyiqlar har xil fitnalarga qurboniga aylangani ham ayni haqiqat.

Professor Muhammadjon Xolbekov XX asr G'arb modern dramasi uchun bag'ishlangan ilmiy risolasida "Yevropada fashizmga qarata "qarshilik ko'rsatish harakati" tarafdorlari bo'lgan dramaturglar ijodida dramaturgiyani, teatr san'atini yangilash, antik dramaga xos mifologik mavzularni zamonaga moslashtirib qayta talqin etish kuchli ekanini" [10] aytib o'tadi. Unga ko'ra XX asrda odamlarning ko'pchiligi faqat mavjudligi, tirikchiligi uchun yashayotgani, yuksak insoniy ideallar va fazilatlardan voz kechib, o'zaro dushmanlashib, absurd-ma'nosiz hayot kechirayotganini aytib, tomoshabinlarga hayot haqiqatlarini insoniyatning inqirozga yuz tutayotganini tasvirlaydi.

XX asr nemis dramaturgiyasida o'ziga hos uslubda dramalar yaratgan va ijodiga yangi ohanglar olib kirgan Gerhart Hauptmannning dramaturgiyasi hayotning turli tomonlarini aks ettiradi. Dramaturg bu davrning to'liqini voqealarini hamisha ham to'g'ri baholay olmagan bo'lsa-da, qator yirik dramatik asarlari, muallif ijodining dastlabki davrida bo'lganidek insonparvarlik g'oyalariga mudom sodiq qolganidan dalolat beradi.

Uning ijodiga baho berar ekan, Tomas Mann (Thomas Mann, 1875-1955) shunday deydi: "Hauptmannning hayoti davomida yaratgan ishlarida o'sha davrning juda ko'p adabiy-badiiy oqimlari birlashdi, naturalizm, simvolizm, neoromantizm oxir-oqibat realizmga aylandi, borliq hayotni jangovarona fosh etish poeziya bilan chirmashib ketdi" [11]. Shu bois, Hauptmann dramaturgiyasini davrlashtirish oson emas. Chunki, adabiy-badiiy oqimlar uning ijodida ketma-ket kelmaydi. Hauptmann ijodining ilk davrida ko'proq naturalistik pyesalarni yaratgan. Uning keyin yozgan asarlarida esa naturalizmning ayrim xususiyatlari epizodik tarzda uchraydi.

Yozuvchining "Kun botish oldidan yoki Hayot shomi" ("Vor Sonnenuntergang" 1932) dramasi eski nemis madaniyatining yemirilishi, beor va gerdaygan burjua korchalon<sup>31</sup>larining zo'ravonlikka intilishlari hajviy bo'yoqlarda berilgan bo'lsa-da dramaning asosiy voqealari Klauzen oilasida sodir bo'ladi. Asarning bosh qahramoni yirik nashriyot firmasining boshlig'i 70 yoshli maxfiy tijorat maslahatchisi Mattias Klauze (Matthias Clausen) bo'lib, to'rtta farzandlarining katta bo'lib qolganini ham sezmay qoladi.

Hauptmann ushbu dramasi uchun dastlab "Yangi Lir" degan nomi bilan atamoqchi bo'lgan. Chunki, o'z farzandlari tomonidan ta'qib ostiga olingan Klauzen tarixi unga XX asr Lirining tarixi bo'lib ko'ringan. Faqat bu yerda "Qirolni "mol-mulkidan" zo'ravonlik bilan mahrum etadilar xolos. Yozuvchi asar qahramonlarini ta'riflar ekan: Bettina - dindor, Wolfgang - olim, Ottili - "hech qanday holatda ajralib turmaydi" ("ohne Eigenart"), bu ularni real tipik belgilar deb hisoblash imkonini beradi. Ammo dramaning markaziy qahramonlaridan biri Inken Piters dramaturg irodasi bilan o'zi uchun haddan tashqari real syujetga joylashtirilgan chinakam romantik qahramondir.

Bir paytlar insonparvarlik tayanchi bo'lgan burjua jamiyati bora-bora boylikni hamma narsadan ustun qo'yadigan, faqat o'z foydasini ko'zlaydigan ishbilarmonlar jamiyatiga aylanib bormoqda edi. Mattias Klauzen obrazi orqali Hauptmann gumanizm g'oyalarini ko'rsatadi. Shu sababli Klauzen timsoli tomoshabinda yaxshi taassurot qoldiradi, u mehribon va halol inson, lekin uning yaqinlashib kelayotgan ma'naviy tanazzul oldidagi ojizligi ham aynan insonparvarligi edi. Muallifning zamonaviy davrning bunday timsoli asarning hayotiy haqiqati haqida gapirishga imkon beradi. Klauzen oilasi Hauptmann uchun ichki kurashlar avj olib borayotgan o'sha davr Germaniyasining o'ziga xos modelidir.

Keyinchalik, bu ibora bir necha marta takrorlanadi. Buni Hauptmannning jamiyatga o'ziga xos murojaati va real voqealarga havola deb hisoblash mumkin. Mattias Klauzen va unga o'xshagan gumanistlar tugab, ularning o'mini romantikaga yo'l qo'ymaydigan realistik fikrlaydigan ishbilarmonlar egallaydi. O'sha davr kishilarining aytishicha ushbu asarida adib inson o'z fiziologiyasi va unga ta'sir qiluvchi jamiyat bilan ziddiyatlarini yaqqol ochib beradi. M. Xaziyeva "Quyosh botishidan oldin" dramasi haqida fikr bildirib, "eski ideallarini saqlab qolgan odamning yangi davr jamiyati bilan to'qnashuvi" [12] deb aytadi. Darhaqiqat Hauptmann dramalarining aksariyatida zamonaviy qahramonlarga o'rin berilgan bo'lib, xalqni o'ziga bo'ysundirishga qaratilgan siyosatni keskin qoralab, tenglik tarafdori bo'lgan yangi qahramonni tanishtiradi.

<sup>31</sup> Ўзини ҳаммадан билимдон деб ҳисоблочи, билармон, маҳмодона. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. Москва. Рус тили нашриёти. 1981. 399. – Б

Hauptmann o'z uslubiga sodiq qolgan holda gumanist qahramonga murojaat qiladi biroq bunday qahramonlar davr nuqtayi nazardan juda zaif va qadrsizligini ham alohida ta'kidlash kerak. Mattias Klauzen yoqtirib qolgan Inken Pitergsa shunday deydi:

„Es wird abwechselnd hell und dunkel in mir, es wechselt Paradieses helle mit tiefer, schauervoller Nacht“. [13]

„Ichimda shunday yorug'lik va qorong'ilik borki, jannat nuri chuqur va dahshatli tun bilan almashayotgandek“ (Tarjima bizniki – O.D.)

Klauzen ushbu fikrlar bilan o'z farzandlari tomonidan doimiy ravishda siquvga olinayotgani, mol dunyo uchun otalaridan sevgan qizidan vos kechishini talab qiladilar. Hatto bu yo'lda o'z otalarini aqldan ozganga chiqaradilar. Biroq Klauzen qalbida bir yoruqlik ya'ni Inken Pitergsa samimiy sevgisi borligini anglatadi. Umuman olganda Klauzen uchun aql va axloqiy kuch bu dunyodan yuqori turadi. Uning fikricha, hayot insonlar totuvligi, fikr erkinligi uchun kurashdir. Ushbu asarda Hauptmann o'zining buyuk psixologik kuchini ko'rsatib, har bir qahramon uchun kuchli profil tipini yaratadi. Natijada dramatik qahramonlar o'rtasida chuqur va haqiqiy insoniy munosabatlar namoyon bo'ladi. Biroq Klauzenning o'limi fashistlar hujumi bilan butun dunyoni vayron qilgan "Klamrotlar" ning kirishiga e'tiroz bildiradi.

Drama to'g'risida shuni aytish mumkinki, ushbu asarda syujetlar, personajlar, harakat joyi, adabiy yo'nalishlar va ko'rib chiqilayotgan muammolar adibning avvalgi dramalariga qaraganda o'zgargan bo'lsa-da, davr uchun zamonaviy drama sifatida talqin qilinadi. Shu bois adibning dramalari individual xususiyatlaridan qat'iy nazar tomoshabin va o'quvchiga birdek ta'sir kuchiga ega. Hauptmann ko'targan muammolar bugungi kunda ham dolzarbdir, shuning uchun uning asarlari eskirmaydi va o'z tomoshabin va o'quvchisini topishda davom etadi. Izzat Sultonning "Imon" va Gerhart Hauptmannning "Hayot shomi" dramalarni tahlilga tortish jarayonida ulardagi o'xshashlik va o'ziga hoslik jihatlari ko'zga tashlanadi. Avvalo ikki drama jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-manaviy kelishmovchiliklardan paydo bo'lgan muammolar to'g'risida bo'lib, voqealar rivoji oilaviy ziyofat paytidan boshlanadi. Drama qahramonlari Yo'ldosh Komilov va Mattias Klauzen turmush o'toqlaridan erta ayrilgan Ziyolilar, ular o'z farzandlari tomonidan tazyiq ostida qoladilar. Y.Komilov farzandi Orifning qallop va ochko'zligi, vijdotsizligi, imonsizligidan aziyat cheksa, Mattias Klauzen barcha farzandlarining meros, mol dunyoga hirs qo'yganidan va bu yo'lda o'z otasini aqldan ozgan degan tuxmatidan qattiq qayg'uga tushadi. Ushbu dramalar ikkinchi jahon urushidagi keyingi ikki mamlakat jamiyatidagi ijtimoiy-manaviy, siyosiy-iqtisodiy muammolar bilan birgalikda, davr kishilarining ruhiyati, xarakterini ochib beruvchi unsurlar ko'rsatib o'tilgan.

Hauptmann Klauzen oilasi misolida butun Germaniya uchun siyosiy fojiani ko'rsatib beradi. Bir tomonda buyuk an'analar va intellektual-axloqiy qadriyatlar qudratiga ishongan, mohiyatan nochor idealist Klauzen, ikkinchi tomonda dunyo ustidan hukmronlik qilishga da'vosi bo'lmagan, ammo hokimiyat instinktiga ega Erix Klamrot (Klauzen oilasining kuyovi) tasvirlashga harakat qiladi. Asarda Klauzen Klamrot haqida shunday deydi: "Kundek ravshanki, mening umr bo'yi qilgan xayrli va ulug'vor ishlarim endi uning qo'lida qabixona oldi-sottiga aylanmoqda"[14]. Klamrotning qilar ishi — kuch-g'ayratini mamlakatning ma'naviy ravnaqiga qarshi qaratishdan iborat. Izzat Sulton esa Yo'ldosh Komilovlar oilasi fonida kishilarning xalqiga, vatanga, jamiyatga munosabati va shu asosda yuzaga kelgan oila va jamiyat, inson baxti, insonning sha'ni va qadr-qimmatini kabi insoniy xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Ma'naviy go'zallik, imon vijdon halolligi singari qarashlari, tasavvur-tushunchalari muayyan ma'no kasb etgan, shaxsiyati shakllangan ruhiyati aks ettirilgan singari tushunchalarning yangicha badiiy talqinlari ko'zga tashlanadi

### XULOSA

Xulosa tariqasida shuni aytish kerakki, I.Sulton dramasi bosh qahramon Y.Komilov o'zi yashayotgan jamiyat a'zosi sifatida, o'z oldidagi va ichidagi to'siqlar bilan kurashib, ularni yengib yoki yengilib, iztirob chekib, quvonib, tantana qilayotgan erkin fikrlovchi shaxs namoyon bo'lsa, G.Hauptmann dramasi bosh qahramon M.Klauzen o'z davrining erkin, ozod fuqorasi biroq uning gumanizmga boy hislatlari qadrlanmaydigan jamiyatda «murdorlar to'dasi» bilan oxirigacha mardonavor kurash olib boradi. Bu kurashda mag'lub bo'lsa-da, o'z erki va e'tiqodiga sodiq qoladi. Hauptmann "Hayot shomi" pyesasida madaniy an'analar, ma'naviy qadriyatlarining ulug'vorligi, kuch-qudratini ko'z-ko'z qilib, vahshiyona ma'naviyatsizlik, yovuzona kuchlar xurujini fosh eta oldi.

## TILSHUNOSLIK

1. Аҳмедова В. Мустақиллик даври ўзбек драматургиясида давр ва шахс фожиасининг янги талқинлари. Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автор. – Тошкент, 2021. – Б. 5.
2. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.
3. Мамажонов С. Теранлик. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987.
4. Собиров Т. Давр ва драма. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.
5. Имомов Б., Жўрав Қ., Ҳакимова Ҳ. Ўзбек драматургияси тарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Фуломов Б. Сафдошлар ва издошлар. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.
7. Жалилов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. Тошкент: Фан, 1984.
8. Султон Иззат. Имон. Биринчи том, драматургия. ҒАФУР ҒУЛОМНОМИДАГИ АДАБИЁТ ВА САЊАТ НАШРИЁТИ. ТОШКЕНТ. 1971. – Б. 173.
9. Султон Иззат. Имон. Биринчи том, драматургия. ҒАФУР ҒУЛОМНОМИДАГИ АДАБИЁТ ВА САЊАТ НАШРИЁТИ. ТОШКЕНТ. 1971. – Б. 197.
10. Холбеков М. XX аср Фарб модерн драмаси. Рисола. – Тошкент: "Mumtoz so'z", 2017. – 72-бет.
11. Икромов Ҳ. Герхард Гауптман. Жаҳон адабиёти. 2013 йил, № 11. 198. – Б.
12. Хазиева М.Ф. ЭВОЛЮЦИЯ ТВОРЧЕСТВА ГЕРХАРТА ГАУПТМАНА НА ПРИМЕРЕ ДРАМ «ПЕРЕД ВОСХОДОМ СОЛНЦА» И «ПЕРЕД ЗАХОДОМ СОЛНЦА» <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-tvorchestva-gerharta-gauptmana-na-primere-dram-pered-voshodom-solntsa-i-pered-zahodom-solntsa/viewer>
13. Hauptmann, Gerhart. Ausgewählte Werke in acht Bänden. Berlin: Aufbau-Verlag, 1962, S. 517-518.
14. Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. Toshkent, Fan va texnologiya, - 2008, –B. 197.